

KAMBAG‘ALLIKKA BARXAM BERISHDA OILAVIY

TADBIRKORLIKNING RO‘ LI

Taylyaqova Feruzaxon Sultanovna

Andijon mashinasozlik instituti “Gumanitar fanlar” kafedrası doktoranti

e-mail:Nurislom_2000@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag‘allik, uning ayanchli oqibatları hamda oilaviy tadbirkorlik kambag‘allikni tugatish omili ekanligi masalalari yoritilgan va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘ zlar: kambag‘allik, farovonlik, yashash minimumi, oilaviy xo‘ jalik, oilaviy tadbirkorlik.

СЕМЬЯ В ИСКОРЕНЕНИИ БЕДНОСТИРОЛЬ

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Тайлякова Ферузахон Султановна

Докторант кафедры “Гуманитарные науки” Андижанского

машиностроительного института

e-mail:Nurislom_2000@mail.ru

Аннотация: В данной статье освещены проблемы бедности, ее печальные последствия и то, что семейное предпринимательство является фактором ликвидации бедности, разработаны практические предложения.

Ключевые слова: бедность, достаток, прожиточный минимум, семейная ферма, семейное предпринимательство.

FAMILY IN GIVING PEACE TO POVERTYTHE ROLLER OF

ENTREPRENEURSHIP

Taylyakova Feruzakhan Sultanovna

Doctoral student of the department of "Humanities",

Andijan institute of mechanical engineering

e-mail:Nurislom_2000@mail.ru

Abstract: this article highlights the problems of poverty, its sad consequences and the fact that family entrepreneurship is a factor in poverty eradication, practical proposals have been developed.

Keywords: poverty, prosperity, living wage, family farm, family entrepreneurship

Kirish

Bugun insoniyat tez rivojlanayotgan, shiddatkor va ziddiyatli zamonda bir qancha global muammolar qurshovida qolgan. Ana shunday muammolardan biri kambag'allikdir. Ushbu masala hozirda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va keng jamoatchilikning e'tiborini tortib dolzarb masalaga aylangan va borada dunyoda qashshoqliq va kambag'allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, uni bartaraf etish yo'llari xususida ilmiy-siyosiy munozaralar va amaliy izlanishlarni amalga oshirmoqdalar. Bunday munozaralar va ilmiy-amaliy izlanishlarning natijasida ushbu mummonining eng asosiy yechimlaridan biri oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ekanligiga e'tibor qaratilmoqda.

Darhaqiqat kambag'alchilikni bartaraf etish sohasida oilaviy tadbirkorlik mamlakatda iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun ham uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ilmiy asosda o'rganish, huquqiy jihatlariga e'tibor berish, jamiyatdagi o'zgarishlar transformatsiyasi davrida kambag'allik va qashshoqlikni tugatishda ushbu jarayonini tahlil qilish nazariy, amaliy ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi. Shu tufayli kambag'allik va qashshoqlikka duchor bo'lish insonning iqtisodiy va ijtimoiy muhofaza qilinmaganligini anglatadi.

Ushbu maqolada kambag'allikning mazmunini, xususiyatlari, namoyon bo'lish shakllarini, vujudga kelish sabablarini hamda tendentsiyalarini tahlil qilish asosida unga qarshi kurash bo'yicha ilmiy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, bu ijtimoiy muammoni yechishda jamiyatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida oilaviy tadbirkorlikning ro'lini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan taxlil qilinib, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va huquqiy asoslarini mustahkamlash, rivojlantirish, hamda uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qilingan. Shuningdek, mazkur maqolada kambag'al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish va oilaviy tadbirkorlikni

rivojlantirishning ilmiy asoslari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va jamoatchilik fikri tahlili O'zbekistonda misolida yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'rish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Ditont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti Lauretlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'rish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan.

Kambag'allik, uni aniqlash va qisqartirish bilan bog'liq masalalar bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan tegishlicha o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R. Djumanova R.F. Ibragimova N.M. Muxitdinova M.Z. Pardaeva B. Saidov K.S. Xashimov P.Z. va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag'allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan. Rossiya va boshqa MDH davlatlari tadqiqotchilari Arxangel'skaya N. Axmadeev L. Bachurin A. Belozeroval S. Bondarenko L. Burlakova Ye.V. Vavilina N.D. Varvus S.A. Ivanov N., Goffe N.larning olib borgan ilmiy ishlari kambag'allik bilan bog'liq masalalarni kengroq yoritishga xizmat qilgan bo'lsa, Gobson Dj., Saks D., Slezinger G.E., Uilyam Z., Uilyams F., Xayvman R. [1] singari yetuk xorijiy iqtisodchi olimlar kambag'allik va aholining boshqa ijtimoiy muammolarini o'rganish borasidagi ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga erishgan.

Taxlil va natijalar

Global miqyosda dunyo minbarlarining bosh mavzusiga aylanayotgan muammolardan biri bo'lgan kambag'allik va uni qisqartirishning to'g'ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan to'liq ish bilan band bo'lishlikni ta'minlash, bu borada

mavjud mammoni xal etish mexanizmlaridan biri oilaviy tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

O'zbek tilining izohli lug'atida "kambag'al" so'zi muxtojlikda yashovchi, tirikchilikka zarur narsalarning yetarli bo'lmagan ma'nolari qayd etilgan. Umuman olganda o'zbek tili boy til ekanligini e'tirof etib, kambag'allik so'zi, bir qancha so'zlar bilan xam ifodalanishi mumkin. Masalan, qashshok, faqir, g'arib, nochor, muhtoj, kabi so'zlar bilan ham ifodalanadi.

Kambag'allik sabablari turlicha bo'lib, ular quyidagi guruhlardan iborat:

- iqtisodiy (ishsizlik, ish haqining kamligi, mehnat unumdorligining pastligi, milliy iqtisodiyot yoki ishchi va xodimning ish bilan band bo'lgan tarmoqning raqobatbardosh emasligi);

- ijtimoiy-tibbiy (nogironlik, qarilik, kasallanish darajasining yuqoriligi);

- demografik (to'la bo'lmagan oilalar, oilada boqimandalarning ko'pligi);

- ijtimoiy-iqtisodiy (ijtimoiy kafolatlar darajasining pastligi);

- ta'lim-malaka (ta'lim darajasining pastligi, kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi);

- siyosiy (harbiy mojarolar, majburiy migratsiya);

- mintaqaviy-jo'g'rofiy (mintaqalarning bir xil rivojlanmaganligi).

Mamlakatimiz taraqqiyotida kambag'allikni hal etishga qaratilgan faoliyat turlaridan biri oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biridir. Binobarin, oilaviy tadbirkorlik asosida shakllangan oilaviy korxonalar faoliyati tovar ishlab chiqarishga, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligiga, yoshlarning kamayib ketishiga, aholi o'rtasida ishsizlikning kuchayishiga, mamlakat iqtisodiyotida inflyatsiyaning pasayib ketishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatorida yoyiladi. Shuning uchun kambag'allik muammosini xal etishda oilaviy tadbirkorlik davlat tashkilotlari va biznes hamjamiyati, kichik va o'rta biznes egalari o'rtasidagi bog'liqlik rolini o'ynashi mumkin. Bu borada davlat tashkilotlari va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida tashkiliy, huquqiy masalalar yechimini topishda oilaviy tadbirkorlik arklari vakillari ham muhim ahamiyatga ega.

Kambag'allik yurtimizda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida birinchi marta mamlakatimizda kambag'al aholi qatlami borligini, ular aholining taxminan 12-15 foizini, ya'ni 4-5 million kishini tashkil etishini ta'kidladi.

Shu vaqtgacha respublikamizda kam ta'minlangan aholi tushunchasi qo'llanib kelingan edi. Kambag'al so'zi hech qachon aytilmagan edi. Davlatimiz rahbari Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etdi hamda bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish vazifasini ko'rsatib o'tdi [2].

Jumladan, ushbu murojaatnomada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab quvvatlash davlatimizning asosiy maqsadlaridan ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi. E'tiborlisi davlat rahbari ushbu murojaatnomada kambag'allikni qisqartirish masalasida tadbirkorlikni rivojlantirishni ustivor vazifalardan biri deb ko'rsatib o'tdi. "Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir." [3]

Mamlakatda kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy qilindi. Jumladan, bu borada aniq va manzilli ishlash maqsadida har bir mahallada "temir daftar"lar yuritish amaliyoti tatbiq qilindi. Bunda kambag'allik domiga tushib qolgan oilalar, ularning a'zolari alohida ro'yxatga olinadi va ular bilan doimiy ravishda tegishli ishlar olib boriladi. Aytish lozimki, mazkur daftarlar amalda har bir oilani kambag'allikdan qutqarishga qaratilgan o'ziga xos "Yo'l xaritasi"dir.

Takidlash kerakki, kambag'allikni yuzaga keltiradigan bosh omil ishsizlik darajasining yuqoriligi, ishchi kuchi qatlamining bugungi zamon talabi darajasiga

mos emasligi, inson kapitali qiymatining mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan orqada qolayotganligida, deb baholash mumkin. Jahon banki tomonidan kambag'allik tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "kambag'allik" – bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy ahvoriga xos xususiyat bo'lib, ular hayot, mehnat qobiliyatini saqlab qolish va o'zidan avlod qoldirish uchun zarur bo'ladigan minimal ehtiyojlarning ma'lum miqdorini qondira olmaydi [4]. Jahon banki mutlaq kambag'allik chegarasini kuniga 1,25 dollardan kam qilib belgilagan (stavka xarid qilish qobiliyati pariteti (PPP) hisoblanadi). 2015 yildan Jahon bankining kambag'allik darajasi kuniga 1,9 AQSh dollariga ko' tarildi.

Umuman olganda "kambag'allik" nisbiy, noaniq va ko'p ma'noli tushuncha bo' lib, ma'lum bir jamiyatlardagi umumiy turmush darajasiga bog'liq bo'ladi.

Xozirgi kunda jahonning turli nuqtalarida bo'layotgan notinchlik kashshoqlik va kambag'allikning kuchayishiga olib kelmoqda. Kambag'allik har qanday iqtisodiy tizim uchun xosdir. Ammo uning keskinlashib borishi ishlab chiqarilgan mahsulot va jamg'arilgan boylik hajmiga, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatiga, halkning farovonligiga, taqsimot usullariga bog'liq ravishda jiddiy farqlanadi. Shuning uchun har bir davlatda o'z milliy iste'mol me'yori, ya'ni yashash minimumi mavjud bo'lib, u ishlab chiqarish imkoniyatlari, millatning boyligi, an'analar, mentalitet (o'ziga xoslik) va boshqalarga bog'liqdir. Ushbu me'yorlarga ega bo'lmagan kishilarni kambag'allarga qo'shadilar.

Kambag'allik –bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralangan, xavf-xatarlar oldida ojizligi hamda nochorligi sanaladi. BMTning ma'lumotlariga ko' ra, Yer yuzida 700 milliondan ortiq odam qashshoqlikda kun kechiradi [5].

Yangi tadqiqot natijasiga ko'ra, oylikdan oylikkacha yashash insonning aqliy salohiyatini pasaytirar ekan. To'rt yil davomida olimlar ishsizlik va og'ir moddiy qiyinchiliklar odamlarning aqliy qobiliyatiga qanday ta'sir ko' rsatishini o'rgandi. Journal of Applied Psychology jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, uzoq vaqt iqtisodiy qiyin sharoitda yashash IQ darajasining sezilarli pasayishiga olib keladi.

Tajriba ishtirokchilarini kuzatish jarayonida olimlar og'ir hayotiy vaziyat insonda bechoralik mentaliteti shakllanishiga olib kelishini aniqlashdi.

“Kambag'allik insonda IQ darajasining 13-14 ta punktni tortib oladi. Keskin uyqu yetishmovchiligi va alkogolizm holatlarida ham shunga o'xshash ta'sir kuzatiladi. Kambag'allik jinoyatni o'sishiga ta'sir etadi. Nochor odamga qanday ko'mak berish mumkin?

Kambag'allik darajasi global miqyosda va har bir mamlakatlar doirasida aniqlanadi. Chunki, Har bir davlat Sharq va G'arbdagi bir qator mamlakatlar tarixini o'rganish shundan guvohlik beradiki, qaysi mamlakatda ishsizlik darajasi yuqori, aholi turmush darajasi past bo'lsa, o'sha mamlakatda ijtimoiy beqarorlik, ijtimoiy taranglik va larzalar yuz beradi.

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda kam ta'minlangan va qashshoqlar soni 2,5 – 3 mlrd kishini tashkil qiladi. Oilada jon boshiga har kungi sarf-xarajat 2 dollardan kam miqdorni tashkil qiladigan oilalar kambag'al oilalar jumlasiga kiritiladi. Kuniga jon boshiga bir dollardan kam sarf-xarajat qilinadigan oilalar esa qashshoq oila hisoblanadi.

O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash shakllari va usullarining xususiyati shundaki, bu jarayonda nafaqat davlat, balki korxonalar, jamoat tashkilotlari shu jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahallalar ham ishtirok etadi. Davlat aholi turli guruhlar tomonidan olinayotgan daromadlarini tartibga soladi, norizoliklar paydo bo'lish xavfini bartaraf etadi.

Xozirgi paytda kambag'allikka barham berish, imkon qadar ularni ushbu toifadan chiqarish choralarini ko'rishi lozim bo'lmoqda. Aynan shu maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu vazirlikka bir qancha yangi vazifalar yuklandi. Bular jumlasiga maqroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida kambag'allikni qisqartirish masalasiga ham aloxida ahamiyat berish lozimligi qayd etilgan[6].

Kambag'allikni tugatishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa oilaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Oila-nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordam va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari-inson zotini davom ettirishdan va bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolari turmush aroiti va bo' sh vaqtini samarali tarzda uyushtirishdan iboratdir." [7]

Jahonda e'tirof etilgan "o'zbek modeli" ning asosiy tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy himoya ekani sababli mamlakatimizda kam ta'minlangan oilalarning soni yildan-yilga kamayib bormoqda. Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishda hozirgi kunda asosiy rolni davlat byudjetidan ajratilayotgan hamda biznes tuzilmalar tomonidan ajratilayotgan mablag'lar tashkil qilayotgan bo'lsa, bu muhim ijtimoiy funktsiyani bajarishda oilaviy tadbirkorlik muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Oilaviy tadbirkorlik mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hamda milliy farovonlikni ta'minlashga borgan sari ko'proq hissa qo'shmoqda. Mazkur institutning rivojlanishi ayni paytda kam daromadli oilalarning soni kamayib borayotganini ham ifodalaydi.

Oilaviy tadbirkorlik xaqida taniqli sotsiolog M.Veber shunday yozadi: "Dastlab oilaviy xo'jalik va biznes o'rtasida tafovut bo'lmagan. Bunday tafovut asta sekin o'rta asrlarda pul muomalasining takomillashuvi oqibatida paydo bo'ldi. Lekin bu tafovut hali Hindiston va Xitoy singari mamlakatlarda noma'lumligicha qoldi. Medichi singari florentsiyalik badavlat xonadonlarda oilaviy xarajatlar va ishlab chiqarish sarflari hisob kitob daftarlarida alohida qayd etilar edi. Moliyaviy balans avvalo, tashqi muomalani hisobga olib tuzilar edi, boshqa sarf-xarajatlarning bari oila jamoasining "umumiy qozoni" hisobiga kiritilar edi" [8]. Minglab yillar davomida rivojlanib kelgan tadbirkorlik, jumladan, oilaviy tadbirkorlik sho'rolar tuzumi davriga kelib qatag'on qilindi. Oilaviy tadbirkorlikka nisbatan qatag'on qilish siyosati sho'rolar tuzumining xususiy mulkchilikka qarshi olib borgan siyosatining tarkibiy qismi edi. Bu siyosat natijasida oilaviy

tadbirkorlik yo'qolish darajasiga kelib qoldi. Mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan erkinlikning ko'rinishlaridan biri tadbirkorlik faoliyatining erkinligi edi.

Jahon statistikasi ma'lumotlariga ko'ra dunyodagi barcha korxonalarning 70 %ini oilaviy korxonalar tashkil qiladi. Sharq mamlakatlarining aksariyatida esa oilaviy biznesning ulushi 90%ga yaqinlashadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, eng rivojlangan mamlakatlarda ham aholining 5-8 foizi ishsiz ekan. Demak, ishsizlik muammosi butun dunyo odamlaridagi bor tashvish... Faqat mazkur masala yechimiga barcha davlatlarda turlicha yondoshiladi. Masalan, Xitoyda kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik bilan ishsizlik muammolariga barham berilmoqda. Buni xitoyliklar kambag'allik va qashshoqlikdan qutulishning eng to'g'ri yo'li deb bilasharkan. Aslida mehnat bilan bandlik bu insonni harakatga keltiradigan hamda daromad topishga undaydigan yagona imkoniyatdir.

Oilaviy tadbirkorlik aholini ish bilan ta'minlaydigan eng muhim vositalardan biri va ayni paytda aholi turmush darajasini o'stirishning muhim manbai hisoblanadi. Shuning uchun oilaviy tadbirkorlik mamlakatda ijtimoiy barqarorlik va kambag'allikni oldini olish omillaridan biri, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin.

O'zbekiston davlat mustaqillikni qo'lga kiritilishi tufayli yo'qolish darajasiga kelib qolgan oilaviy tadbirkorlik qaytadan qad rostladi. Xususiyl tadbirkorlikni, jumladan, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi.

“.....bitta ishsiz odam – o'nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi”[9] -deb ta'kidlagan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev. Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolar uchun qator imtiyozlar yaratildi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida oilaviy tadbirkorlik tazyiq va qatag'onlarga uchragan bo'lsa, mustaqil O'zbekiston hukumati odamlarni oilaviy tadbirkorlik bilan

shug'ullanishga da'vat qila boshladi. Buning sababi oilaviy tadbirkorlik qator ijtimoiy muammolarni hal qilish va farovonlik kaliti ekanida.

Xozirgi paytda kambag'allikka barham berish, imkon qadar ularni ushbu toifadan chiqarish choralari ko'rishi lozim bo'lmoqda. Aynan shu maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi. Ushbu vazirlikka bir qancha yangi vazifalar yuklandi. Bular jumlasiga maqroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida kambag'allikni qisqartirish masalasiga ham aloxida ahamiyat berish lozimligi qayd etilgan.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatimiz aholisi iqtisodiy faoliyatining jadallashuvi, oilalardagi mavjud moliyaviy, madaniy sarmoyadan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Ko'pchilik oilalar uchun oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish faqat tirikchilik qilish manbai emas, iqtisodiy farovonlikka erishish imkoniyati hamdir. 2005-2006 yillarda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan oilalar a'zolarining 50 foizga yaqini (42-48 foizi) tadbirkorlikdan asosiy maqsad sifatida kambag'allikdan qutilish, ishsiz qolmaslik kabilarni ko'rsatgan bo'lsa, 2006-2018 yillarda o'tkazgan tadqiqotlar bunday ko'rsatkich 12-14 foizga tushganini ko'rsatdi. Endi oilaviy tadbirkorlarning asosiy maqsadi farovonlikni ko'tarish, kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish, rivojlangan mamlakatlardagi turmush andozalariga erishish kabilari bo'lib qoldi.

Takidlash kerakki, kambag'allikka qarshi kurash davlat dasturining ro'yobga chiqishi, kambag'allik darajasini pasaytirishga imkoniyat yaratmoqda. O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash shakllari va usullarining xususiyati shundaki, bu jarayonda nafaqat davlat, balki korxonalar, jamoat tashkilotlari shu jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahallalar ham ishtirok etadi. Davlat aholi turli guruhlar tomonidan olinayotgan daromadlarini tartibga soladi, norizoliklar paydo bo'lish xavfini bartaraf etadi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlarni samarali amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2020 yil 18 fevraldagi farmoni hamda qaroriga muvofiq, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mahalla – tuman (shahar) – viloyat – respublika darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni kamaytirishga mas'ul lavozimlar joriy qilinib, vertikal tizim yaratildi.

Xulosa

Takidlash zarurki, kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini bilan bog'liq. Qolaversa kambag'allikka qarshi kurash kambag'allik domiga tushib qolgan har bir fuqarodan dadillik va qat'iyatni jumladan, o'z hayotini o'zgartirishga bo'lgan kuchli xohish, yangilanishlardan qo'rqmaslik va doimo oldinga intilishni talab etishini ta'kidlash lozim. Zero, "muammoni imkoniyatga aylantirish" har bir insonning o'z qo'lida.

Xulosa qilib ayitganda:

- kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida ishsizlik darajasini pasaytirishga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bunda ishga joylashish imkoniyatini yaratuvchi, tegishli davlat organlari bilan bir qatorda, fuqarolarning mas'uliyatini oshiruvchi, har bir insonning shaxsiy sharoitini hisobga oluvchi, o'ziga mustaqil yordam bera olmaydiganlarni qo'llab-quvvatlovchi faol va ta'sirchan siyosat yuritish, ushbu maqsadlarga jamiyat va xususiy sektor resurslarini jalb etish;

- nodavlat-notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda odamlarimizni tadbirkorlikka o'qitishning eng ilg'or dasturlarini ishlab chiqish va kasbga o'qitishda nodavlat tashkilotlarning faolligini kuchaytirish;

- ishga joylashishga muhtoj shaxslarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini kengaytirish, bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda, maqbul shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan choralar ko‘rish;

- aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, buning uchun ijtimoiy mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali jon boshiga to‘g‘ri keladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini, ya‘ni mehnat unumdorligini keskin oshirishni taqazo qiladi.

Shu bilan birga O‘zbekiston hukumati kelgusi yilda kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirish borasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Ko‘riladigan chora-tadbirlar:

- oilaviy tadbirkorlik dasturlari, ishsiz aholi va yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, xizmat ko‘rsatish sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish uchun 13 trillion so‘m beriladi;

-paxta va g‘alladan bo‘shaydigan 200 ming gektar maydonning 80 ming gektari aholiga beriladi;

-meva-sabzavot loyihalariga 100 million dollar va meva-sabzavot klasterlariga 2 trillion so‘m resurs yo‘naltiriladi;

-aholi bandligini ta‘minlashda 500 ming gektardan ziyod tomorqalardan samarali foydalanish uchun kelgusi yilda 100 million dollar yo‘naltiriladi;

-aholi tomorqasida dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish uchun banklar tomonidan 7 foiz stavkada imtiyozli kreditlar beriladi.

-hokim yordamchilari bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, tomorqasi bo‘lgan xonadonlarda 100 ta parranda, 20 ta quyon, 5-6 ta qo‘y va echki, kamida 5-10 ta kurka, 5 ta asalari uyalari boqilishini tashkil etishga ko‘maklashishadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Архангельская Н. Ловушки бедности.: Эксперт.- № 16.12.02.2010г.- с.2-
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar.
3. O‘sha joyda

4. Ахмадеев Л. Бедность: социальные портрет явления.: Экономика и управление. - 2010г.- №4.- 78с.
5. Sh.M.Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.O‘zbekiston 437-bet
6. Qosimova Gulmira. Mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish yo‘llari. 2021 yil.. SCIENTIFIC PROGRESS. 813- bet
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 6-jild. 2005.469- bet
8. Вебер, М. Протестантская этика и дух капитализма // Вебер М. Избранные произведения. - М.: Прогресс, 2000, 258 с.
9. Mirziyoyev Sh. Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovan xayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. Xalq so‘zi. 2018 yil 8 dekabr.